



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,  
I-QISM**

Google Scholar



**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



**ISSN: 2992-8982**

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.  
I-qism*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
<b>Urakova Maxsad Xakimovna</b>	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
<b>Kholdorov Sardor Umarovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
<b>Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
<b>Zoxidov Firuz Faxritdinovich</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
<b>Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна</b>	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
<b>Muzaffarov Akmal Axmadovich</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ.....	49
<b>Ирматова Азиза Бахрамовна</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	56
<b>Akramova Feruza</b>	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION.....	68
<b>Hao Xiaohui</b>	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	76
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	83
<b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
<b>Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович</b>	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	97
<b>Ташмухамедова Карима Саматовна</b>	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	104
<b>Тарават Абдул Салам</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Ibadullayev Dilshad Ibragimovich  
Urganch davlat universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston va uning mintaqalariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi hamda ularning manbalarida milliy va xorijiy mablag‘lar ulushining o‘zgarishi tahlil qilingan. Mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko‘lami baholangan. Tadqiqot natijasida respublika va uning mintaqalarida, xususan, Xorazm viloyatida investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya hajmi, milliy investitsiya ulushi, xorijiy investitsiya ulushi, mintaqa, Xorazm viloyati.

**Аннотация.** В статье проанализированы объем инвестиций, привлеченных в Узбекистан и его регионы, а также изменения доли национальных и иностранных источников финансирования. С учетом специфических особенностей регионов дана оценка масштабов привлечения иностранных инвестиций. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по увеличению объема инвестиций в Республике Узбекистан и ее регионах, в частности в Хорезмской области.

**Ключевые слова:** объем инвестиций, доля национальных инвестиций, доля иностранных инвестиций, регион, Хорезмская область.

**Abstract.** This article analyzes the volume of investments attracted to Uzbekistan and its regions, as well as changes in the shares of domestic and foreign investment sources. Taking into account the specific characteristics of the regions, the scale of foreign investment attraction is evaluated. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed to increase investment volumes in the Republic of Uzbekistan and its regions, particularly in the Khorezm Region.

**Keywords:** investment volume, domestic investment share, foreign investment share, region, Khorezm Region.

## KIRISH

Mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyoti izchil sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Ushbu ijobiy o‘zgarish iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda tarkibiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, oxirgi yillarda iqtisodiyot soha va tarmoqlarini izchil sur‘atlarda rivojlantirish, ularni modernizatsiya qilish hamda innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy islohotlar dasturida ham joriy yil yakuniga qadar "...Iqtisodiyotga 50,4 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish[1]" iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

Mazkur masalalarda ijobiy o‘zgarish sur‘atlarini davom ettirish hamda ko‘lamini oshirish bevosita moliyaviy resurslarga, xususan, investitsiyalarga bog‘liq. Investitsiyalar to‘g‘risida gapirilganda, ularning ko‘lamini oshirish, albatta, manbalari hamda ularning diversifikatsiyasiga bog‘liq. Jumladan, milliy va xorijiy mablag‘larning ulushi, ularning o‘zgarishi muhim mezon sanaladi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalaridagi tegishli ko‘rsatkichlarni tahlil qilishimiz zarur.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Joy brendlash sohasidagi ilmiy munozaralar 1970-yillarning o'rtalarida shakllanib, Kotler va uning hammualliflari tomonidan joy marketingining nazariy asoslari ishlab chiqildi. Keyinchalik ushbu yo'nalish izchil rivojlanib, Anholt asarlari orqali mustaqil akademik yo'nalish sifatida mustahkamlandi hamda "joy brendi" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi [2]. Anholt nazariyasida brendlash faqat logotip yoki ommaviy axborot vositalaridagi targ'ibot bilan cheklanmay, balki hududning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini yagona kommunikatsiya tizimida uyg'unlashtiruvchi strategik jarayon sifatida talqin qilinadi.

Papadopoulos va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar joy brendlash va FDI jalb qilish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurlashtirib, ushbu ikki soha o'rtasidagi nazariy imkoniyatlarni kengaytirdi [3]. Mualliflar investitsiya qarorlarida nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki investorning hudud haqidagi subyektiv idroki ham muhim rol o'ynashini asoslab berdilar. Bu yondashuv "yumshoq" omillarning strategik ahamiyatini yanada aniq ifodalashga xizmat qiladi. Lahrech va boshqalar Qatar misolida milliy brend investorlar uchun muhim indikator ekanligini empirik tarzda tasdiqlab, Dunning OLI paradigmasi bilan integratsiyalashgan yondashuvni taklif etdilar [4]. Almeida esa destinatsiya imijining mintaqaviy rivojlanishga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, turizm orqali shakllangan ijobiy imij investitsiyalar oqimini qo'llab-quvvatlashini asoslab berdi [5]. Matniyozov tadqiqotida Xorazm viloyati misolida kognitiv va effektiv imij o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik empirik jihatdan tasdiqlandi [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar manbalari rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlarini baholash va tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Investitsiyalar manbalari tarkibi va ularning hududlar bo'yicha taqsimlanish xususiyatlarini aniqlash uchun statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi.

Xususan, dinamik tahlil usuli yordamida 2010–2024-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zgarish tendensiyalari baholandi. Qiyosiy tahlil orqali respublika hududlarida investitsiyalar manbalari tarkibidagi farqlar aniqlandi va mintaqalarning investitsion faolligi taqqoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish sur'atlari hamda hajmlariga ega bo'lgan. Mazkur holat iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar, xorijiy mablag'lar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog'liq. Ya'ni, tadqiqot davri davomida mamlakatga yo'naltirilgan investitsiyalarning hajmi 2010-yildagi 16,5 trln. so'mdan o'sib borib, 2024-yilda 507,5 trln. so'mga yetgan va umumiy holda 30,8 barobarga o'sgan (1-jadval).

Shunday bo'lsa-da, mamlakat mintaqalari darajasida investitsiya faolligi notekis o'zgarishlarga ega bo'lgan. Jumladan, yuqori o'zgarishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida kuzatilgan. Respublika ko'rsatkichlariga nisbatan o'rtacha holatlar esa Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahriga to'g'ri kelgan. Mamlakat ko'rsatkichiga nisbatan quyi qiymatlar esa respublikaning sanoatlashgan hududlari sanalgan Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida aniqlangan.

Shunga ko'ra, mamlakatda investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlar baholandi. Bunda 2010–2016-yillarda investitsiyalar hajmi 16,4 trln. so'mdan 51,2 trln. so'mgacha o'sib, o'rtacha o'zgarishlarga ega bo'lgan. 2017–2019-yillarda esa ushbu o'zgarishlar tezlashib, 124,2 trln. so'mdan 195,9 trln. so'mga yetgan. Keyingi yillarda yuqori o'sish jarayoni kuzatildi. Demak, mamlakatdagi investitsiya faolligi oxirgi yillarda manbalari bo'yicha o'zgarishlar hisobiga, ya'ni xorijiy kredit va investitsiyalar hisobiga amalga oshmoqda. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining investitsion jozibadorligi oshganligi hisobiga yuz bermoqda. Shunday bo'lsa-da, ularning mintaqalardagi ko'rsatkichlarini o'rganishimiz muhim sanaladi.

Bunda Xorazm viloyatidagi ko'rsatkichlar ham yuqori o'zgarishlarga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda investitsiya jarayonlari respublikadagi umumiy tendensiyalarga mos holda rivojlangan bo'lsa-da, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ya'ni, ushbu ko'rsatkich 2010–2024-yillar davomida 416,9 mlrd. so'mdan 2024-yilda 15624,1 mlrd. so'mga yetib, 37,5 barobar o'sgan. Demak, ushbu ko'rsatkichning viloyatdagi o'zgarishlari respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan (1-jadval).



1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalariga kiritilgan investitsiya hajmi, mlrd.so'mda<sup>1</sup>

Mintaqa nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarish, barbarda
O'zbekiston Respublikasi	16463,7	19500	24455,3	30490,1	37646,2	44810,4	51232	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	507490,2	30,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	496,4	950,3	1242,1	2415	3990,6	6021,2	3778,3	2822	6757,8	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	20567,7	41,4
Andijon viloyati	726,2	1037,2	1379,9	1462,3	1645	1956,5	2188,5	2986	4711,9	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	28668	39,5
Buxoro viloyati	2147,2	2101,8	2405,8	2998,7	3583,2	4075,9	5922,9	11613,4	9610,9	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	51663,9	24,1
Jizzax viloyati	440,8	580,3	792,5	1128,5	1200,9	1304,9	1449,7	1788,2	3606,3	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	23515,4	53,3
Qashqadaryo viloyati	1792,8	2265,9	3072,2	3667,8	4721,8	5894,7	7304,4	11175,3	16518,5	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	35482,5	19,8
Navoiy viloyati	1741,8	1421,9	1688	1696,9	1754,1	1809,1	2963,2	3977,9	10579,5	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	33550,2	19,3
Namangan viloyati	660,6	764,2	917,3	1205,1	1807,5	2227,5	2824,5	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	12982	14775,1	19220,1	54231,4	82,1
Samarqand viloyati	1083,1	1345,6	1586	2127,6	2540,4	3237,2	3623,5	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	28946,93	26,7
Surxondaryo viloyati	655,3	802,9	980,3	1371	1509,1	1843,6	2142,4	3551	7240,6	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	16593,1	25,3
Sirdaryo viloyati	406,2	596,7	663,1	852,8	992,3	1083,3	1322,9	1628	2699,3	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	11406,3	28,1
Toshkent viloyati	1606,1	2221,6	2005,8	3195,2	4021,7	4428,1	4238,7	5938,4	11226,9	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	73325,12	45,7
Farg'ona viloyati	930,9	1261,4	1505,8	2130	2295,3	2542,3	2643,6	2954,5	5539,1	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	21542,7	23,1
Xorazm viloyati	416,9	627,1	783,4	1256,9	1614,8	1531,5	1560,5	2175,9	3013,8	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	15624,1	37,5
Toshkent shahri	3309	3523,1	5433,1	4977,1	5969,5	6854,6	9268,9	13573,7	26435,7	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	91642,8	27,7

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida xorijiy investitsiyalar ulushining o'rtacha ko'rsatkichlari bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarni yuqoridagi kabi ikki bosqichga ajratib tahlil qildik. Birinchi bosqich 2010–2018-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrning o'ziga xos xususiyati xorijiy manbalarning nisbatan past va sekin o'zgarishlarga ega davr sifatida qaraladi. Ikkinchi davr sifatida esa 2019–2024-yillarni o'rganamiz. Mazkur bosqich ko'rsatkichning yuqori ijobiy o'zgarishlari kuzatilgan yillarga tegishli bo'lib, xorijiy investitsiyalar ko'lami ustuvor manbaga aylanganligi bilan asoslanadi.

Demak, Xorazm viloyatiga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarning o'rtacha ulushi 2010–2018-yillarda 7,4 foizga, 2019–2024-yillarda esa 41,2 foizga teng bo'lgan. Bu mintaqada hanuz ichki investitsiyalar ulushi yuqoriligicha qolayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa mintaqada investitsiya siyosatini takomillashtirishni, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilishni talab etmoqda (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalari iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalardagi xorijiy investitsiyalar ulushining o'rtacha ko'rsatkichlari, jamiga nisbatan foizda<sup>2</sup>

Mintaqalar nomi	O'rtacha (2010-2018 yy)	O'rtacha (2019-2024 yy)	O'rtacha (2010-2024 yy)
O'zbekiston Respublikasi	21,0	49,6	32,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28,8	46,4	35,9
Andijon viloyati	7,2	52,0	25,1
Buxoro viloyati	52,3	62,2	56,3
Jizzax viloyati	6,2	58,1	26,9
Qashqadaryo viloyati	25,1	61,5	39,6
Navoiy viloyati	17,6	62,0	35,3
Namangan viloyati	16,1	47,6	28,7
Samarqand viloyati	3,6	41,9	18,9

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



Surxondaryo viloyati	11,2	57,1	29,5
Sirdaryo viloyati	7,6	64,0	30,2
Toshkent viloyati	13,5	41,1	24,5
Farg'ona viloyati	11,2	46,8	25,4
Xorazm viloyati	7,4	41,2	20,9
Toshkent shahri	20,1	37,7	27,1

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida O'zbekiston va uning mintaqalaridagi investitsiyalar hajmi hamda uning manbalari bo'yicha tuzilishining ekonometrik tahlillarini amalga oshiramiz. Bunda mamlakat mintaqalaridagi o'rtacha ko'rsatkichlarni tanlab oldik. Jumladan, xorijiy investitsiyalarning jami ulushining 2019–2024-yillardagi o'rtacha ko'rsatkichlari tanlab olingan bo'lib, ularga asos sifatida oxirgi yillardagi iqtisodiy siyosatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar olingan.

Tahlil jarayonida mintaqalardagi xorijiy investitsiyalar ulushining ko'rsatkichlariga qarab uchta sifat mezonini tanlab olindi. Jumladan, yuqori ( $\geq 55,19\%$  va  $\leq 63,97\%$ ), o'rta ( $\geq 46,42\%$  va  $< 55,19\%$ ), quyi ( $\geq 37,65\%$  va  $< 46,42\%$ ) sifat mezonlari bo'yicha tasnifladik. Natijada yuqori sifat mezoniga Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari to'g'ri kelgan. O'rtacha sifat mezoniga esa Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari mos bo'lgan. Shuningdek, quyi sifat mezoniga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri to'g'ri kelgan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida jami investitsiyalardagi xorijiy investitsiyalarning ulushi bo'yicha iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil natijalari<sup>3</sup>

Xorijiy investitsiyalar ulushi statistik tavsifi		Xorijiy investitsiyalar ulushi sifat mezonlari	Xorijiy investitsiyalar ulushi oraliq ko'rsatkichlari		Xorijiy investitsiyalar ulushi bo'yicha mintaqalar soni va ulushi		Xorijiy investitsiyalar ulushi bo'yicha mintaqalar nomi
			$\geq$	$<$	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	51,26778	Quyi	37,65	46,42222	5	35,71	Qoraqalpog'iston respublikasi, Samarqand viloyati, Toshkent viloyati, Xorazm viloyati, Toshkent shahri
Standart xatolik	2,311221						
Mediana	49,58333						
Standart chetlanish	8,95132						
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	80,12613	O'rta	46,42222	55,19444	3	21,43	Andijon viloyati, Namangan viloyati, Farg'ona viloyati
Ekssess	-1,501						
Asimmetriklik	0,058013						
Interval	26,31667						
Ko'rsatkichlar minimumi	37,65	Yuqori	55,19444	63,96667	6	42,86	Buxoro viloyati, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati, Navoiy viloyati, Surxondaryo viloyati, Sirdaryo viloyati
Ko'rsatkichlar maksimumi	63,96667						
Ko'rsatkichlar jami summasi	769,0167						
Kuzatishlar soni	15						
<b>Umumiy taqsimot qiymatlari</b>					<b>14</b>	<b>100</b>	

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, tabiiy resurslarga boy hududlar xorijiy investitsiyalar uchun yuqori jozibadorlikka ega bo'lmoqda. Shunday bo'lsa-da, inson kapitali rivojlangan hududlarda esa xorijiy investitsiyalarni jalb etish salohiyati nisbatan pastligicha qolmoqda. Ushbu guruhda Xorazm viloyati ham

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



mavjud bo'lib, mintaqaning investitsiya salohiyatidan foydalanishga alohida e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Jumladan, mintaqada xorijiy investitsiyalarni oshirish, umumiy investitsiya mablag'lari ko'lamini kengaytirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

investitsiyalar manbalarini diversifikatsiya qilish;

investitsiyalarni mintaqa soha va tarmoqlari kesimida maqbul taqsimlashga e'tibor qaratish;

mintaqa turizm industriyasi bo'yicha investitsiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirish;

mintaqada ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani davlat-xususiy sherikchilik asosida kengaytirish;

mintaqada xorijiy investitsiyalar uchun mo'ljallangan erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish lozim.

Umumiy holda, yuqoridagilar asosida mintaqada xorijiy investitsiyalar ko'lami kengayishiga hamda jami kapital mablag'larining barqaror o'sishiga erishiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida **PF-22-son** Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>
2. Anholt, S. (2005). Editorial: Some Important Distinctions in Place Branding. *Place Branding*, **1**(2), 116–121. <https://link.springer.com/article/10.1057/palgrave.pb.5990011>
3. Papadopoulos, N., Hamzaoui-Essoussi, L., & El Banna, A. (2016). Nation Branding for Foreign Direct Investment: An Integrative Review and Directions for Research and Strategy. *Journal of Product & Brand Management*, **25**(7), 642–661. [https://www.researchgate.net/publication/311482618\\_Nation\\_branding\\_for\\_foreign\\_direct\\_investment\\_an\\_Integrative\\_review\\_and\\_directions\\_for\\_research\\_and\\_strategy](https://www.researchgate.net/publication/311482618_Nation_branding_for_foreign_direct_investment_an_Integrative_review_and_directions_for_research_and_strategy)
4. Lloyds Bank Trade. (2024). *Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan*. International Trade Portal. <https://www.lloydsbanktrade.com/en/marketpotential/uzbekistan/investment>
5. Almeida, G. G. F. (2023). The Influence of Destination Image Within the Territorial Brand on Regional Development. *Cogent Social Sciences*, **9**(1). <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2023.2233260>
6. Matniyozov, M. (2024). The Formation of Destination Image of Khorezm Region. *BIO Web of Conferences*. [https://www.bioconferences.org/articles/bioconf/abs/2024/01/bioconf\\_msnbas2024\\_06013/bioconf\\_msnbas2024\\_06013.html](https://www.bioconferences.org/articles/bioconf/abs/2024/01/bioconf_msnbas2024_06013/bioconf_msnbas2024_06013.html)
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>